

MINNIQULOV Islom Urol o'g'li,
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti,
Ingliz tili birinchi fakulteti,
Ingliz tilini o'qitish metodikasi №1 kafedrasida dotsenti,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),
email: mr.islom19@gmail.com

QADRIYAT TUSHUNCHASINING MAZMUN-MOHİYATI

СОДЕРЖАТЕЛЬНАЯ СТРУКТУРА ПОНЯТИЯ ЦЕННОСТИ

CONTENT STRUCTURE OF THE CONCEPT OF VALUE

Annotatsiya: Ushbu maqola qadriyat tushunchasining mazmun-mohiyatini yoritishga bag'ishlangan. Xususan, ushbu tushunchaning mazmun-mohiyati turli nuqtai nazarlardan tahlil qilinadi. Maqolada qadriyat inson va uning hayotining ajralmas qismi sifatida o'rganiladi. Ushbu tushunchaning mazmuniy mundarijasini tashkil etuvchi komponentlar sotsiologiya, iqtisodiyot va lingvistika fanlari nuqtai nazaridan tahlil qilinadi. Uning mazmuniy mundarijasining restriktiv va norestriktiv kabi o'lchov parameterlari o'rganiladi. Qadriyat ma'lum baholash amalga oshiriladigan mezon yoki standard sifatida talqin etiladi.

Kalit so'zlar: qadriyat, mezon, norma, standard, restriktiv, norestriktiv, sotsiologik qadriyat, iqtisodiy qadriyat.

Аннотация: Данная статья посвящена выяснению сущности понятия стоимости. В частности, сущность этого понятия анализируется с разных позиций. В статье рассматривается ценность как неотъемлемая часть человека и его жизни. Компоненты, составляющие содержание этого понятия, анализируются с позиций социологии, экономики и лингвистики. Изучены рестриктивные и нерестриктивные параметры измерения его содержания. Ценность интерпретируется как критерий или эталон, по которому делается определенная оценка.

Ключевые слова: ценность, критерий, норма, эталон, ограничительная, неограничительная, социологическая ценность, экономическая ценность.

Abstract: This article is dedicated to clarifying the essence of the concept of value. In particular, the essence of this concept is analyzed from different perspectives.

The article examines value as an integral part of a person and his life. The components that make up the content of this concept are analyzed from the perspective of sociology, economics and linguistics. Restrictive and non-restrictive measurement parameters of its content are studied. Value is interpreted as a criterion or standard against which a certain assessment is made.

Key words: value, criterion, norm, standard, restrictive, non-restrictive, sociological value, economic value.

KIRISH

Ma'lumki, bugungi kunda olamni ilmiy bilish jarayonida fanlararo yondashuv alohida ahamiyat kasb etmoqda va ma'lum fan yoki sohaga oid mavjud muammolarni hal etish, ularni yanada chuqurroq o'rganish, o'ziga xos xususiyatlarini mos ravishda izchil tadqiq qilishda fanlararolik tamoyilidan keng foydalanilmoqda. Bunga asosiy sabab shuki, ba'zi tushuncha, muammo yoki hodisalar nafaqat bitta fan yoki sohaning o'rganish masalasi, balki qator fan va sohalarning tadqiqot obyektini sifatida qaralyapti. Natijada, mazkur tushuncha yoki hodisaning mazmun-mohiyati murakkab tuzilish hosil qilib fanlararolik tamoyili asosida tadqiq etilish muammosini o'rta qo'yimoqda. Jumladan, qadriyat tushunchasi ham turli sohalar o'rganish obyektini bo'lgani sababli, uning ta'rifiy-tavsifiy xususiyatlari turli soha vakillari uchun turlicha talqin qilinmoqda va qator tadqiqotlarda qayd etilganidek, u o'zining yagona mukammal ta'rifiga ega emas. Bizning fikrimizcha, uchbu muammo mazkur tushunchaning mazmun-mohiyati fanlararolik tamoyili asosida tahlil qilinsa ma'lum darajada o'z yechimini topadi. Qadriyat tushunchasi turli soha doirasida turli fanlarning o'rganish obyektini bo'lgan. Xususan, antropologiya, sotsiologiya, kulturologiya, falsafa, psixologiya, siyosat, huquq, tilshunoslik va h.k. Ushbu sohalarda qadriyat tushunchasi ma'lum darajada o'rganilgan va o'z ta'rif va tavsifiga ega. Ushbu maqolada biz mazkur tushunchaning mazmun-mohiyatini yoritishda fanlararolik tamoyilidan foydalanamiz. Yuqoridagi fikr-mulohazalardan kelib chiqib qayd etish mumkinki, tadqiqotning maqsadi qadriyat tushunchasining mazmun-mohiyatini fanlararolik tamoyili asosida tahlil qilish orqali uning murakkab tuzilishini ilmiy-nazariy jihatdan asoslash va yoritib berishdan iborat.

ASOSIY QISM

Qadriyatlar insonlarning kundalik ish-harakatlarini, shaxsiy fikr va xatti-harakatlarini belgilovchi, ularning qaror qabul qilishlarini yo'naltiruvchi mezondir. Qadriyatlar o'z tuzilishi, o'lchov shkalasiga ega bo'lib, insonlar xatti-harakatlari bilan o'zaro munosabatda bo'lishi mumkin [9:31]. Ma'lum bo'ladiki, qadriyatlar insonning kunlik xatti-harakatlari: fikrlash tarzi, ish-harakati, qaror qabul qilishi kabi faoliyatlariga ta'sir qiluvchi ijtimoiy norma yoki mezon bo'lib, o'z tarkibiy tuzilishi, o'lchov parametrlari va insonlar xatti-harakati bilan chambarchas bog'liqlik xususiyatiga ega tushunchadir.

Professor Brian Moeran qadriyat tushunchasining murakkab va chigal ekanligini ta'kidlar ekan, quyidagi ikki omilni sabab qilib ko'rsatadi: a) qadriyat tushunchasi turli fanlar (ijtimoiy-gumanitar fanlar: falsafa, san'at, lingvistika, psixologiya, sotsiologiya, iqtisodiyot) ning o'rganish obyekti bo'lmasin, hanuzgacha uning sistematik nazariyasi ishlab chiqilmagan; b) qadriyatlar o'zaro bog'liq bo'lgan ikki ijtimoiy-madaniy sohada mavjud bo'lib, birinchi soha – o'z-o'zidan iborat bo'lsa, ikkinchisi – boshqalardan iborat [1:3-4]. Aniq bo'ladiki, qadriyat ancha murakkab tushuncha bo'lib, turli ijtimoiy-gumanitar fanlar doirasida o'rganilgan bo'lsa-da, uning tizimli nazariy asosi mukammal emas. Shuningdek, qadriyatlarning mavjudlik makoni insonlarning o'zlari va boshqa ijtimoiy jamoa bilan belgilanadi. Bu esa, mazkur tushuncha mohiyatini yanada chigallashtiradi va u haqidagi mavjud nazariyalarni tizimlashtirish vazifasini kun tartibiga qo'yadi.

Gabriel E. Idang ham qadriyat mohiyatining murakkabligi xususida shunday deydi: *Biror narsaning qiymati, xoh u obyekt yoki e'tiqod bo'lsin, odatda uning qadriyati sifatida aniqlanadi. Ma'lum obyekt yuqori qiymatga ega bo'lgani bois qadrli sanalganidek, to'g'ri yoki noto'g'ri ekanligi haqidagi e'tiqodlarimiz ham xuddi shunday qadrlanadi.* Demak, qayd etish joizki, qadriyat narsa, obyekt, e'tiqodning ma'lum qiymatga ega ekanligi sababli mavjud bo'ladi. Qadriyat u bilan birga yashash va hatto o'lishimiz mumkin bo'lgan nuqtai nazar yoki ishonch sifatida tasvirlanishi mumkin. Mana shuning uchun ham qadriyatlar inson hayotining barcha jabhalariga singib ketgan. Masalan, diniy, siyosiy, ijtimoiy, estetik, axloqiy,

madaniy va hatto shaxsiy qadriyatlar haqida haqli ravishda gapirish mumkin [4:101]. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, qadriyat inson hayotining barcha aspektida mavjud bo'lib, u insonlarga umumiy nuqtai nazar yoki ishonch sifatida xizmat qilishi mumkin.

Qadriyat tushunchasining mazmuniy mundarijasidan ma'lumki, uning asosiy yoki fundamental turlari alohida ta'kidlanadi. Shuningdek, Corey Brettschneider ham, demokratiyaning uchta asosiy qadriyati - *manfaatlar tengligi, siyosiy avtonomiya va o'zaro manfaatlilik* - haqida so'z yuritir ekan, ularni demokratik fuqarolikning asosiy shartlari yoki ko'rsatkichlari sifatida e'tirof etadi [2:270]. Demak, qayd etish joizki, asosiy yoki fundamental qadriyatlar ma'lum sohadagi umumiy qonuniyat yoki konsepsiyaning asosiy sharti bo'lishi mumkin.

David Graeberning e'tirof etishicha, qadriyat tushunchasining bugungi kundagi mohiyatining shakllanishida quyidagi uch oqim muhim o'rin egallaydi: a) *sotsiologik* oqimga ko'ra, qadriyat - bu inson hayotida yaxshi, to'g'ri yoki orzu qilingan narsalar haqidagi tushunchalardir; b) *iqtisodiy* nuqtai nazardan, qiymat (qadriyat) obyektlarning zarurati va dolzarbligi, ayniqsa, boshqalar ularga yetishish uchun qanchalik voz kechishga tayyorligi bilan o'lchanadi; d) *lingvistik* aspektda qadriyat Ferdinand de Sossyurning struktural lingvistika ta'limotiga borib taqaladi va uni *ma'noli farqlar* (meaningful differences) deya ta'riflash mumkin [3:2]. Shunday ekan, qadriyat tushunchasining hozirgi tavsifiy xususiyatlarining kelib chiqishida sotsiologik, iqtisodiy va lingvistik sabablar muhim ahamiyat kasb etgan. David Graeber qadriyat tushunchasining mazkur sohalaridagi ta'riflarida quyidagi o'xshashlik va umumiylikni ko'radi: ish-harakatlar ma'nolidir (mazmunlidir), chunki ular muhimdir, ish-harakatlar muhimdir, chunki ular ma'nolidir (mazmunlidir). Shu o'rinda qayd etish joizki, David Graeberning fikricha, *qadriyatlar* yoki *qadriyatlar tizimining* nazariy tahlili asosan falsafa (aksiologiya) va sotsiologiya bilan chegaralanadi [3:3]. Bundan aniq bo'ladiki, qadriyat tushunchasini qaysi aspektda o'rganmaylik, mazkur tushunchaning nazariy asoslari falsafa va sotsiologiya fanlari tomonidan ishlab chiqilgan.

Qadriyat tushunchasining murakkab xususiyatlari to'g'risida fikr yuritir ekan, Mikhail

Permilovskiy qayd etadiki, qadriyatlar inson hayotiy faoliyatining butun majmuasini o'z ichiga oladi va hayotning o'z qadriyatidan ibtido bo'lib, hayot talablari va rivojlanish imkoniyatlari bilan intiho qiladi [7:164]. Demak, qadriyat inson faoliyatini butunlay qamrab oladi va ushbu faoliyatni barqarorlashtirib turadi, ya'ni ma'lum darajada inson hayotini boshqaradi.

Qadriyat tushunchasi mohiyatining murakkabligini qayd etar ekan, Reinhard Pauls uni quyidagicha bayon etadi: qadriyat tushunchasi turli kontekstda va qo'llanishda turlicha tushuniladi. Xususan, u a) standartlar, e'tiqodlar, tamoyillar, axloqiy majburiyatlar, ijtimoiy normalar, b) istaklar, xohishlar, ehtiyojlar yoki qiziqishlar, c) biror narsa yoki obyektning qiymati, ahamiyati yoki muhimligiga ishora qiladi [8:4]. Bundan ma'lum bo'ladiki, qadriyat tushunchasi mohiyatan keng qamrovli va murakkab bo'lib, turli kontekstda turlicha talqin etiladi.

Reinhard Pauls qadriyatning mazmun jihatdan ikkita farqini qayd etadi: a) tayinlangan qiymat yoki obyekt qiymati (obyekt yoki hodisani baholash natijasi (iqtisodiyot)); b) mezon sifatidagi qiymat yoki ushlab turiladigan qiymat (baholash amalga oshiriladigan standartlarga ishora qiladi (sotsiologiya, antropologiya, psixologiya va ijtimoiy psixologiya)) [8:5]. Anglashiladiki, qadriyat obyekt qiymati (iqtisodiyot sohasida) va mezon qiymati (ijtimoiy fanlarda) sifatida talqin qilinishi mumkin. Demak, lingvistika sohasida qadriyat uning ikkinchi mohiyati asosida talqin qilinadi. Ya'ni, qadriyat ma'lum baholash amalga oshiriladigan mezon yoki standard sifatida qaraladi.

Shu o'rinda qayd etish joizki, qadriyat tushunchasi ko'lami ikki mezon bilan belgilanadi: restriktiv (tor doirali, chegaralangan) va norestriktiv (keng doirali, chegaralanmagan). Restriktiv o'lchov deskriptiv qadriyat ko'lami normativ qadriyat mezoni asosida chegaralab turadi va faqat orzu qilingan qadriyat (xulq-atvor) ni belgilaydi. Norestriktiv o'lchov esa chegarasiz, keng qamrovli bo'lganligi sababli har qanday istaklar, xohishlar, yoqtirishlar, zavqlar, ehtiyojlar, qiziqishlar, afzalliklar, burchlar va boshqa ko'plab tanlangan xatti-harakatlar munosabatlarini o'z ichiga oladi [8:24]. Ma'lum bo'lishicha, qadriyat tushunchasi mohiyatan murakkabligi tufayli uning ko'lami aniqlashga ikki yondashuv mavjud: restriktiv va norestriktiv. Restriktiv o'lchov qadriyatning

normativ nazariyasi asosida ish ko'radi va jamiyatda nima bo'lishi kerakligi, orzu qilinadigan narsalarni qadriyat sifatida bilsa, norestriktiv insonning barcha xohish-istaklari, qiziqish va h.k. qamrab oladi.

Reinhard Pauls Schwartz va Bilsky (1987) tomonidan ilgari surilgan qadriyat xususiyatlarini quyidagicha bayon etadi: a) tushunchalar (konsept) yoki e'tiqodlar, b) yakuniy holatlar yoki xatti-harakatlar, c) muayyan vaziyatlar, d) xatti-harakatlar va hodisalarni tanlash yoki baholashni boshqarish e) nisbiy ahamiyatiga qarab tartiblangan narsa [8:27]. Bundan aniq bo'ladiki, qadriyat tushunchasi o'zining murakkab tabiatiga ega.

Mariusz Wojewoda qadriyat tushunchasi mazmunini yoritar ekan, quyidagi fikrlarni bildiradi: qadriyatlar mavzu jihatdan erkin bo'ladi. Odamlar, narsalar, hodisalar qadriyatlar tashuvchisidir. Qadriyatlar inson tomonidan o'rganiladi, uning ichki tajribasi va intellektual salohiyati orqali yuzaga chiqadi. Qadriyatlar o'ziga xos filtrdir; u orqali biz o'zimizni aks ettiramiz va atrofimizdagi boshqa odamlar va obyektlarga murojaat qilamiz [6:222]. Ko'rinadiki, qadriyatlar, ma'lum ma'noda, inson tajribasi va intellektual potentsiali orqali namoyon bo'luvchi, shu bilan insonning o'z olamini aks ettiruvchi, insonga uning atrofidagi olamga ma'lum ravishda munosabat qilishini ko'rsatuvchi vositadir.

Qadriyat tushunchasi har qadamda hayotimizga kirib boradi. U hayotimizning ajralmas qismiga aylangan. Inson har qadamda unga duch keladi. Buning sababini Samuel L. Hart quyidagicha izohlaydi: biz bir narsani boshqasidan afzal ko'ramiz, diqqatimizni bir voqeadan boshqasiga o'tkazamiz, bir xatti-harakatni maqtay, boshqasini qoralaymiz, biz yoqtiramiz va yoqtirmaymiz va har doim buni qadrlaymiz [10:29]. Anglashiladiki, biz qadriyatlar bilan yashaymiz. U bizning kunlik ish-harakatlarimizda aks etadi. Xususan, narsa, obyekt, xatti-harakat, voqea-hodisalar va boshqa munosabat bildirayotganimizda namoyon bo'ladi.

R.U. Madzhidovanning ta'rificha, qadriyat - shaxs (jamiyat) tomonidan axloqiy idrok etish natijasida ilgari surilgan subyekt-fenomenal voqelikni o'zining majburiyat va ahamiyati, insoniyatning asosiy me'yorlari va yutuqlari prizmasi orqali ifodalovchi falsafiy kategoriyadir. Olimaning fikricha, insoniyatning asosiy

me'yorlari va yutuqlari qadriyatlar shaklida taqdim etilib, shaxsning o'zi yashayotgan jamiyat bilan integratsiyalashuviga yordam beradi. Bunday normalar insonning jamiyatdagi xatti-harakatlarini tartibga solib, uni jamiyat tomonidan belgilangan doirada harakat qilishga undaydi [5:99]. Ma'lum bo'lishicha, qadriyat tushunchasi ijtimoiy-falsafiy kategoriya bo'lib, jamiyatda inson xatti-harakatlarini tartibga solib turuvchi norma bo'lib xizmat qiladi.

Tatyana V. Evsyukova qadriyat tushunchasiga quyidagicha umumiy ta'rif beradi: *qadriyatlar muayyan vaziyatlarni tavsiflovchi, ma'qul xulq-atvorni tanlashga hissa qo'shadigan va muhimlik tartibida yoki shaxs ongli ravishda izlayotgan maqsadlar sifatida tashkil etilgan xatti-harakatlarning istalgan usullari bilan bog'liq qarashlar sifatida qaraladi* [11:352]. Qadriyat tushunchasiga bildirilgan ushbu umumiy ta'rifdan aniq bo'lishicha, qadriyat muayyan vaziyat, ma'qullangan xulq-atvor, muhim narsa va boshq., ongli xatti-harakat, maqsadli xatti-harakat va boshq. sifatida qaralishi mumkin.

XULOSA

1) qadriyat tushunchasining mazmuniy tuzilishi a) standartlar, e'tiqodlar, tamoyillar, axloqiy majburiyatlar, ijtimoiy normalar, b) istaklar, xohishlar, ehtiyojlar yoki qiziqishlar, c) biror narsa yoki obyektning qiymati, ahamiyati yoki muhimligi kabi komponentlardan iborat;

2) qadriyat tushunchasining bugungi kundagi mohiyatining shakllanishida quyidagi uch oqim muhim o'rin egallaydi: a) sotsiologik oqimga ko'ra, qadriyat - bu inson hayotida yaxshi, to'g'ri yoki orzu qilingan narsalar haqidagi tushunchalardir; b) iqtisodiy nuqtai nazardan, qiymat (qadriyat) obyektlarning zarurati va dolzarbligi, ayniqsa, boshqalar ularga yetishish uchun qanchalik voz kechishga tayyorligi bilan o'lchanadi; d) lingvistik aspektda qadriyat Ferdinand de Sossyurning struktural lingvistika ta'limotiga borib taqaladi va u ma'noli farqlar (meaningful differences) sifatida talqin etiladi;

3) qadriyat tushunchasining mazmuniy ko'lamini ikki mezon bilan belgilanadi: restriktiv (tor doirali, chegaralangan) va norestriktiv (keng doirali, chegaralanmagan). Bunda restriktiv mezon ijtimoiy normalarga asoslangan (normativ) qadriyatlarni qamrab olsa, norestriktiv mezon har qanday

istaklar, xohishlar, yoqtirishlar, zavqlar, ehtiyojlar, qiziqishlar, afzalliklar, burchlar va boshqa ko'plab tanlangan xatti-harakatlar munosabatlarini o'z ichiga oladi;

4) qadriyat tushunchasi, asosan, ma'lum baholash amalga oshiriladigan mezon yoki standard sifatida qaraladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Brian Moeran. Notes for a Theory of Values// Creative Encounters, Copenhagen Business School. 2009, 24 p.
2. Corey Brettschneider. The value theory of democracy// Politics, Philosophy & Economics, SAGE Publications Ltd, 2006, 10 5(3) P. 259-278.
3. David Graeber. Toward an Anthropological Theory of Value. The False Coin of Our Own Dreams. – New York: Palgrave Macmillan, 2001. – 317 p.
4. Gabriel E. Idang. African Culture and Values// University of South Africa, Phronimon, Volume 16, Number 2, 2015, P. 97-111.
5. Madzhidova Rano Urishevna. Anthropocentric Proverbs as a Concentration of Axiological Features of a Language// International Journal for Social Studies, Volume 05, Issue 11, 2019, P. 98-106.
6. Mariusz Wojewoda. Axiology and the Mortality of the Human Being// Ethics & Bioethics (in Central Europe), 2018, 8 (3-4), P. 219-226.
7. Mikhail Permilovskiy. The Axiological Approach to the Regulation of the Right to a Favourable Environment// Arctic Review on Law and Politics, Vol. 3, 2/2012, P. 162-185.
8. Reinhard Pauls. Concepts of Value: A Multi-Disciplinary Clarification. – New Zealand: Centre for Resource Management, 1990. – 76 p.
9. Ryan L. Boyd and et al. Values in Words: Using Language to Evaluate and Understand Personal Values// Proceedings of the Ninth International AAAI Conference on Web and Social Media, 2015, P. 31-40.
10. Samuel L. Hart. Axiology -Theory of Values// International Phenomenological Society. Philosophy and Phenomenological Research, Vol. 32, No. 1, 1971 (updated 2020), P. 29-41.
11. Tatyana V. Evsyukova et al. Axiological World Picture of the Virtual Language Personality in Blog-Discourse Space// European Research Studies Journal Volume XX, Issue 3B, 2017, P. 342-354.